PARAFRAZA VA INSONLARGA QO‘YILGAN LAQABLAR TAHLILI

Ulmesova Aida Alibek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
aida451.aaaa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kishilarga, ulardagi ijobiy va salbiy holatlariga ishora qiluvchi biror laqab bilan atash mavjudligi to‘g‘risida ham fikr bildirilgan. Shundan so‘ng parafrazalar, ularning stilistik vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etishi izohlangan.

Kalit so‘zlar: Parafraza, laqab, obraz, yangidan nomlash, laqab bilan atash, estetik munosabat, parafraza, stilistik vosita, parafrazalarning turlari.

Turkiy xalqlarda voqea-hodisalar va shaxslarni o‘z nomi bilan emas, balki ularning belgi-xususiyatlarini tasvirlash orqali yangidan nomlash hodisasi uchraydi. Shuningdek kishilarga, ulardagi ijobiy va salbiy holatlariga ishora qiluvchi biror laqab bilan atash holati ham mavjud. Bizga ma’lumki, insonlarga berilgan har qanday tasviriy ifoda yoki laqabda qandaydir estetik munosabat mujassam bo‘ladi. Parafraza (yunoncha “paraphrasis” – tasviriy ifoda, tasvir). Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash; shunday ifoda. Masalan: dala malikasi (makkajo‘xori), zangori olov (gaz) kabi.[1,80-b] O‘zbek milliy estradasining asoschisi (Botir Zokirov). Parafrazalar nafaqat jozibadorlik, obrazlilik va nutqni boyitish, balki uning mazmunini kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Shuningdek jamiyatning olg‘a qadam qo‘yishiga to‘sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham qo‘llaniladi. Binobarin parafrazalar predmet, voqea-hodisalarning o‘z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo‘rttirib, izohlab va to‘ldirib ko‘rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Laqab (arabcha “ikkinchi nom”, “laqab”, “taxallus”).

1. Biror xususiyatiga koʻra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qoʻshimcha nom. Shuningdek biror maqsad, zaruriyat bilan oʻzgartirib olingan boshqa nom. Masalan: Unga “Mitti” ... laqabini qaysi hazilvon qoʻygan boʻlsayam topib qoʻyibdi (H.N.).

2. Taxallus. Masalan: Muhammad Aminxoʻjani endi xalq Muqimiy deb taniy boshladi. Seni ham xalqqa bir laqab bilan tanitishni istayman! Sening laqabing Mavlaviy boʻlsin dedi ustoz (S.A.).

3. Familiya. 4. Hayvonlarga qoyilgan nom. Masalan: Chalma va Medunka laqabi boʻlgan ikkita gʻunajinning suti tekshirib boriladi (N.M.).

Ushbu izohdan ma’lumki, laqab lig‘aviy birligida to‘rt xil ma’no mujassamdir. Adiblar o‘z asarlarida mazkur so‘zining ana shu ma’nolaridan unumli foydalanishadi. Bu esa har bir tilning milliy jozibasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuni aytish joizki, bunday evfemizaцiya boshqa halqlarda ham keng tarqalgan edi. A.Axmetov Amerika, Avstraliya, Osiyo qit’asi xalqlari orasida odam ismi berkitilganligini yozadi.[2,176-b] Goʻyo uni ochiq aytish odam tanasiga ziyon etkazadi. Hatto: “– Oting nima?” deyilganda, “– Mening otim yoʻq” deb javob berishi, yonidagi urugʻdoshiga: “– Men uchun sen ayta qol” deb iltimos qilishi Adjibvey qabilasining odati boʻlganligini aytadi. Lekin bu “Asrovchi ismlar” nafaqat mazmunan ijobiy, chiroyli nomlardan, balki koʻp holda qoʻpol, xunuk ma’noli nomlardan tashkil topishi ham mumkin. Vaholangki, bolaga xunuk ma’noli soʻzlardan yasalgan ismlarning berilishi chaqaloqni yomon koʻzlardan, koʻz tegishdan asrash, goʻdakning dushmani boʻlmish yovuz kuchlarni chalgʻitish, aldash maqsadi bilan bogʻliqdir. Oʻzbek ismlari orasida “asrovchi ismlar”ni tarixchi Sh.Oʻljayeva quyidagi guruhlarga ajratadi. Ularning ayrimlari quyidagicha:

Sogʻlik, uzoq umr tilashini ifoda etuvchi ismlar: Tursun, Turdi, Toʻxtasin, Oʻlmas, Yursin, Omonturdi, Turgʻun, Turgʻunoy, Ergash, Yoʻldosh kabi.

Turli kasalliklarni engishi, chidamli, irodali, mustahkam boʻlib oʻsishini orzu qilib qoʻyilgan ismlar: Tosh, Toshboy, Toshxon, Temur, Temura, Metinboy, Poʻlat, Choʻyonboy, Qilichboy, Xanjara, Halqonboy, Teshaboy, Boltaboy, Mahkam, Mahkamoy, Berk, Berkinoy va boshqalar.

Yashovchanlik, barhayotlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi boʻlmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar: Chinor, Chinora, Sadaboy, Archaboy, Yovshan va hokazo.

Yoqimsizlik, noxushlik, achchiqlik ramzi hisoblanuvchi narsalar, oʻsimliklar nomidan yasalgan ismlar: Sarimsoq, Soʻgʻonboy, Piyozbek va shular kabi. Mana shunday ismlar qoʻyilsa chaqaloqning dushmani, yovuz kuchlar bolaga yaqinlashmaydi, undan nari ketadi deb hisoblashgan.

Ba’zan ataylab xunuk ma’noli nomlarni qoʻyishgan: Yomonbola, Itolmas, Itemas, Kasofat, Shagʻalboy, Sabila kabi. Kishilar bola shunday nomlansa e’tiborsiz boʻladi, unga koʻz tegmaydi deb hisoblashgan.

Bu tasnif tarixiy jihatdan mavjud manbalar asosida amalga oshrilgan boʻlib, lingvokulturologik jihatdan diniy, ijtimoiy, madaniy ziddiyatlarni yuzaga keltirishi tabiiy. Nutqiy vaziyatda bunday ismlar disfemik kayfiyat uygʻotishi, buning natijasida esa ism sohibining ijtimoy mavqei, psixoligik ruhiyati, kelajagi bilan bogʻliq muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Hayotiy misol: bir yoshi katta odamning 25 yillik hayoti ismi tufayli achinarli kechadi. 25 yoshgacha uning ismi tugʻilganlik guvohnomasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatida Tufli deb qayd etilgan boʻladi. U shu yoshda hujjatni almashtirib Tolib deb oʻz ismini oʻzgartiradi. Vaholangki, u goʻzal, sof oʻzbekcha, ota-bobolarimizdan meros boʻlgan Tubli degan ismi boʻlganligidan bexabar. FXDYO xodimning kichik xatosi bir odamning 25 yil kulgi boʻlishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytsak, har ikki (evfemizm va disfemizm) hodisa ham okkazional xarakterga ega boʻlib, ular mudom oʻzgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli oʻlaroq, evfemizm vaqt oʻtib, lisoniy birlikka aylananish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, oʻz evfemik xususiyatini ham yoʻqota oladi. Bu tez-tez qoʻllanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, vaqt oʻtishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizaциyasi samarasiz boʻladi, chunki ular biron bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda oʻz ma'nosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi. Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolish bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova X. O`zga tilli guruhlarda mental xususiyatga ega evfemizm va disfemizm hodisalarini tushuntirishning muhim jihatlari. // O`zbek tilini ikkinchi va xorojiy til sifatida o`qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. ToshDO`TAU, Respublika ilmiy-amaliy anjuman metriallari. – Toshkent, 2020 yil, 20 may.
2. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko– Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. – Chicago–London: University of Chicago Press, 1983. – 52 p.
3. Axmetov A. Turki Tilderinden tabu men evfemizmder. Almati: Gʻoʻloʻm, 1995. 176 b.
4. Begmatov E. Oʻzbek ismlari. - Toshkent: Oʻzbekiston milliy enциklopediyasi. 1998.
5. Begmatov E.A. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994. 74-75 B.; Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
6. Березович Э.Л. Русская ономастика на современном этапе: критика // Известия академии наук. сэр написать лит-ры я. Т. 60, № 6. Ноябрь-декабрь 2001. С. 34-46.